

Jizzax viloyati hududidagi ayrim o'simliklarning shifobaxshlik xususiyatlari

To'raqulova V.A.

Jizzax viloyati O'zbekistonning markaziy mintaqasida joylashgan bo'lib, uzunligi sharqdan g'arbga 180 km, janubdan shimolga 175 km ni tashkil qiladi. Uning maydoni 21.1 ming km.ni tashkil qiladi.

Orografik-geologik, relefi, tuproq, o'simlik va dunyosiga ko'ra, viloyat ikki qismga ajratiladi. Birinchisi Jizzax vohasining shimoliy qismi—asosan pasttekisliklardan iborat. Ikkinchisi, janubiy qismi sharqdan-g'arbga yo'nalgan Turkiston tizma tog'lariqad ko'targan.

G'arbda— Molguzor, Qo'ytosh, Balig'litog' o'rab turadi. Chekka shimolini Qizilqum cho'li egallagan. Shimoli-sharq va sharq tomondan viloyat maydoni Mirzacho'ning landshaftlari bilan chegaralangan. Janub va janubiy-sharq tomondan esa Oloy va Turkiston tizmalari tutashib ketgan.

Viloyat o'zining boy florasiga ega bo'lib, shulardan shifobaxsh o'simliklar alohida ahamiyat kasb etadi. Soyabonguldoshlar oilasiga mansub bo'lgan kovrak o'simligi shular jumlasidandir. O'zbekistonda *Ferula.L* turkumiga oid 45 tur, Jizzax viloyati hududida esa 28 tur o'sishi olimlarimiz tomonidan aniqlangan.

Sassiqli kovrak-*F.assa-foetida L.* Ko'p yillik monokarpik o'simlik. Bo'yi 1m. Barglari yumshoq, tezda so'lib qoladi. Barg qini ovalsimon, yassi, qog'ozga o'xshaydi. Soyaboni 25 nurli, eni 15-20 sm, soyabonchalari 15 gulli. Mart-aprel oylarida gullaydi, aprel-may oylarida urug'laydi. Respublikamizning cho'l va adir zonalarida keng tarqalgan.

Qadim zamonlardan xalq tabobatida ushbu o'simlikdan keng foydalanib kelingan. Bugungi kunga kelib, zamonaviy tibbiyot sohalarida tadbqiq qilinib, farmosevtika sanoatida dori preparatlari ishlab chiqarilmoqda.

Quyida ayrim kovrak turlarining dorivorlik xususiyatlari haqida bayon qilmoqchimiz.

1. Sassiqli kovrak shilimshiq chiqaradigan, balg'am tashlatadigan ta'sirga ega. U ko'krak qafasini tozalab, ovozni tiniqlashtiradi, surunkali yo'tal va xronik ovoz xirillashiga qarshi yordam beradi.

2. Yallig'langan murtaklarni davolash xususiyatiga ega. Buning uchun uni asal bilan aralashtirib, og'iz bo'shlig'iga surish kerak. Agar iste'mol sirkasi bilan xilitit aralashtirib, bintni unda xo'llab olib, tomoqqa bog'lab qo'yilsa, u tomoqdagi balg'amni chiqaradi.

3. Zaharga qarshi dori. Uni zahar ta'siriga qarshi himoya sifatida ichish mumkin. Chayon chaqqanda esa uni iliq o'simlik moyiga aralashtirib chaqqan joyga surish kerak.

4. Kovrak ko'rish qobilyatini yaxshilaydi. Katarakta, ko'z kasalliklari va shishlarini davolaydi. Agar tez-tez yoshlanadigan ko'zlarga uni asal bilan aralashtirib, surma kabi sursa, u ko'z yoshlarini tez-tez kelishini oladi. Agar uni yemirilgan tishga qo'ysa og'riqlarni sekinlashtiradi.

5. U quloq og'rig'i (quloqning shang'illashi) va surunkali qulog'i og'irlik(karlik)ni davolaydi.Buning uchun uni moyda qaynatib quloqqa tomizish lozim.

6. Kovrak artrit va bo'g'im og'riqlarini davolashda yordam beradi.Asab kasalliklarini davolashda samarali vosita.Yuz falajligida uni yuzga singdirib surish kerak.

7. Sassiqlik kovrak qonni tozalaydi va bezgakni yo'q qiladi.

8. Ichga qabul qilganda kovrak bodlarni chiqaradi.Qorin bo'shlig'ida turib qolgan qonni tozalaydi va sanchiqlarni yo'q qiladi.Surunkali diareyadan aziyat chekkan bemorlar uni 2gramm miqdorida tanovvul qilib darddan qutulishi mumkin.U ichaklardagi yaralarni davolashga yordam beradi, ichdagi qurtlarni chiqaradi. Bunda tashqari u jigar va oshqozon uchun ham foydalidir.

9. U ichki shishlarni va zararli suyuqliklarni so'rilishiga yordam beradi.Istisqo, sariqlik kasali va taloqlik shamollashini davolaydi va organizmda yig'ilib qolgan zararli bug'larni (bod va suyuqlik zarrachalari) chiqartiradi.

10. Bavosilni yo'q qilishda yordam beradi ya'ni uni kichraytirib quritadi.

11. Havfli va qattiq bo'lib qolgan o'smalarni yo'q qilishda ko'maklashadi.Bunda uni ichga ham, sirtga ham qo'llash mumkin.Hozirgi kunga kelib saraton va boshqa kasalliklarni davolashda qo'llanib yaxshi natija bermoqda.

12. Kosmetologiya sohasida undan temiratki, sepkil, so'gal, chandiqlarni yo'q qiladi.Alopetsiyada(soch to'kilishi) iste'mol sodasiga aralashtirib qo'llaniladi.

Dorivor o'simliklardan yana biri isiriqdir.

Tuyatovondoshlar-*Zygophyllaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'tsimon o'simlik. O'q ildizi 3 metr chuqurgacha ketadigan, yo'g'on. Tanada ko'plab poyalar joylashadi.

Oddiy isiriq-*Peganum harmala L.*- kuchli spetsifik hidga ega bo'lgan ko'p yillik o'tsimon o'simlik. Tupi ko'p poyali, yoyiq, balandligi 50 sm. gacha yetadi. Ildizi ko'p boshli, kuchli, yo'g'on ildiz qinli (8-5 sm. gacha yetadi), yog'ochlashgan, egri, quruvchi, jigarrang-qora po'st bilan qoplangan bo'lib, tuproqda chuqur joylashgan bo'ladi (2-3 m). Poyalari shoxsimon, to'g'ri, tuksiz, mayin, qalin barglangan. O'troqlik bargli, navbatma navbat joylashgan bo'lib, uzunligi 4-5 sm, eni 5,8-6,5 mm ga yetadi.

Gullari tugallangan, poya va shoxlar ustida simpodial, barglangan to'pguldan iborat. Gulkosachasi 5 ta uchli kesilgan gulkosachabarglarga bo'lingan. Changchisi-12 dan 15 gacha, iplari kengaygan bo'lib, tangachasiz, urug'chi yirik, uzunchoq tasmaimon. Urug'doni yuqori, yumaloqlik, 2-3 uyali, tuksiz, mayin, yirik. Urug'chi uzun, yupqa, yuqorida qovurg'ali, tumshuqchasi qovurg'alarda joylashgan. Mevasi-quruqlik, 3-uyali, 0,6-1 sm tepasidan yumaloqlik ko'sakcha bilan yopishgan. Urug'lari uchqirrali, ponasimon bo'lib, uzunligi 4 mm gacha va eni 2 mm atrofida, to'q jigarrang, kulrang, qoramtir rangda bo'ladi.

Peganum harmala L.-Bu eng qadimgi dorivor o'simlik hisoblanadi.«Avesto»da (eramizdan avvalgi VII-V asrlar) uni tinchlantiruvchi, havoni tozalovchi o'simlik deb ta'riflanadi. Uning poyasi kasallikka chalingan bemorlarning xonalarida tutatilgan.

Dioskorid isiriqni ko'z xiraligi kasalligida foydalangan. Abuxanif Dinovari (815-895) isiriq tomiri damlamasi bilan surunkali tutkanoqni davolagan. Abu Ali ibn Sino isiriq bo'g'in og'rig'ida asab kasalliklarida foyda berishini yozadi. O'simlik shirasi siydik haydaydi, xayzni tezlatadi, bundan tashqari taloq, ichak bavoil kasalliklarini davolaydi. Hozirda xam isiriq eng ko'p qo'llaniladigan dorivor o'simlik hisoblanadi.

Tojiklar shollarni davolashda uning poyasini tutatadilar. Isiriq urug'i, zira yoki kunjut urug'i qaynatmasi bilan astmani, nafas qisishi va revmatizmni davolashda, bundan tashqari tinchlantiruvchi, safro xaydovchi, siydik xaydovchi va terlatuvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Shimoliy Tojikiston axolisi isiriqdan olingan yelimsimon moddadan turli kasalliklarni davolashda qo'llaydilar. Bu yelimni olish uchun isiriq endi o'sa boshlagan paytda uning tanasi ustiga teshik qozon to'ng'ariladi. Isiriq qozonning ostida yarim qorong'ulikda o'sa boshlaydi. Issiq paytlarda o'simlik o'zidan moddalar bug'latadi, bu moddalar qozonning ichki qismiga yopishib, yelimsimon modda hosil qiladi. Bu moddani pichoq bilan qirib olib, idishga yig'ib uni dorivor modda sifatida ishlatganlar.

Uning ildizida 3.3%, poyasida 3,57%, bargda 4,96% va urug'ida 6,60% gacha alkaloidlar bor. Ulardan garmalin, garmin, peganol, dezoksipeganin kabi moddalar ajratib olingan. Isiriqdan bezgak, tutqanoq, nevrasteniya, shamollash bilan bog'liq kasalliklarni davolashda foydalanish mumkin. Ibn Sino isiriqni quymich asablari shamollaganda tizza suyaklari qaqshab og'riganda og'riq qoldiruvchi sifatida foydalangan. Isiriqning sut shirasiga 10 kun davomida shimdirilgan bir tutam paxta yoki junli mato qichima bilan og'rigan bemorga surtsa, bemor ancha taskin topishi haqida ma'lumotlar ulkan ensiklopedist olim Abu Rayhon Beruniyning "Kitob as-Saydana fit-tibb" asarida keltirilgan.

Limon-Rutadoshlar *Rutaceae* oilasiga, Sitruslar turkumiga mansub. Limon katta bo'lmagan, uzunligi 3-7 m, har doim yashil, shoxlarida barg va tikonlari bor daraxt. U sharsimon va piramidasimon o'sadi. Limonning gullari oq bo'ladi. Mevasi - tuxumsimon, sariq po'stli, ichki qismi - nordon, suvli, 8-10 bo'lakka bo'lingan, uzunligi 6-9 sm deimetri 4-6 sm, ichki qismida urug'lari bor.

Limon *limonium* asosan 45 yil yashaydi. Barglari limon hidli, qalin, yashil, cho'ziqroq, uzunligi 10-15 sm, eni 5-8 sm bo'ladi. Barg almashinuvi 3 yilda bo'ladi. Ya'ni bitta barg 3 yil yashaydi.

Limonning nomlanishi Malayziya tilida "le-mo", Xindistonda limonni "nimu", Xitoyda esa "limung" - "onalar uchun foydali" degan ma'noni bildiradi.

Limonning kimyoviy tarkibida o'rtacha 3,5-8,1 % organik kislotalar (asosan limon kislota va olma kislota), 3,5 % gacha shakar, pektinlar, karotin, fitonsid, vitaminlar-tiamin, riboflavin, askarbin kislota -0,085% gacha, kaliy, kaltsiy, magniy, fosfor va temir tuzlari bor.

Urug' tarkibida efir moylari va limonin bor. Efir moylar shoxchasi va barglarda 0,24% gacha topilgan.

Limon po'sti efir moylar, pektinli moddalar va vitaminlarga (140 mg % gacha vitamin S) juda boy. Bargining tarkibida 55-880 mg % S vitamini bor.

Insonning salomatligi o'z qo'lida, odam kasal bo'lib qolsa albatta dori-darmon (kimyoviy prepartlar)dan foydalanishadi. Shu dori-darmonlar o'rniga

shifobaxsh o'simliklardan foydalanishsa, ularning insonga beminnat yordami nihoyatda katta. Jumladan limonning mevasi, sedrasi, danagi va limon daraxtining po'stlog'idan uy sharoitida turli shifobaxsh dorilar tayyorlash mumkin. Bu dorilar gipovitaminoz, avitaminozda davolashda, shamollashga qarshi, gijjalarni haydashda, siydik tosh kasalliklarida, oshqozon-ichak yo'lining kasalliklarida, moddalar almashinuvining buzilishida, leykotsidlarni faollashtirishda, qonni tozalashda, qon ketishda to'xtatishda, qayd qilishda, qichishishga, zaxarlanishda, bod kasalligida, jigar va oshqozon osti bezlarini yaxshilashda, podagrani davolashda, qandli deabidda, singa, angina, revmatizm, kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

O'rta asrlarda vabo kasalligining yuqishi va ilon chaqqanida zaxarga qarshi davo deb bilishgan. Sharq tabobatida limonni jarohatda, yotoq kasalligida va har xil zaxarlanishlarda juda yaxshi foydalanishgan.

Ibn Sino yurak kasalliklarida, xomilador ayollar hamda sariq kasallar limonni ko'proq iste'mol qilishni yozgan.

Yangi limon sharbatidan singa kasalligida iste'mol qilish kerak. Limondan limonad tayyorlab tutqanoq va terlama kasalliklarida ichilsa yaxshi foyda beradi. Hozirgi vaqtda yangi uzilgan limon va uni po'chog'idan limon sharbati hamda limon moyi olinmoqda. Limondan dorining hidi va ta'mini yaxshilashda ishlatishadi.

Limon po'chog'i nastoykasidan jig'ildon qaynashi, ishtaxa ochish, qayd qilishni oldini olishda foydalaniladi.

Xalq tabobatida limondan quyidagi kasalliklarni davolashda foydalanishgan. Singada vitaminli vosita sifatida, ogiz va tomoqning shilliq qavati yallig'langanda chayishgan, jigar va sariq kasalliklarida, shish va siydik tosh kasalliklarida, revmatizm, podagra hamda gijjalarni yo'qotishda ishlatishgan Terining zamburug'li kasalligi va ekzemada ham foydalanishgan.

Limondan kosmyetikada ham keng foydalanib kelinmoqda. Limon suvi yuz terisini yumshatadi va oqartiradi. Tuxum oqi ko'pirtirilgani, gletsirin, odikolon limon suvi bilan aralashmasidan sepkilni , teridagi pigment dog'larni yo'qotishda, teri ajinlarini yo'q qilishda, terini yoshartirishda ishlatiladi. Limon sharbatidan tirnoqni sinuvchanligini oldini olishda ham foydalanishadi.

Limondan soch uchun balzam, krem, losion, maskalar ham ishlab chiqarishadi.

Xulosa qilib aytganda bebaho tabiatimizdagi har bir o'simlikdan unumli foydalanishimiz va kelgusi avlodga yetkazib berishimiz lozim. Chunki har bir o'simlik o'ziga xos xususiyatiga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Boltaev A. Mirzacho'l-Jizzax: O'tmishi va buguni. Toshkent, 2007-y. Fan nashriyoti.
2. Nishonov S.A. Jizzax viloyati. Toshkent. 1980-y.
3. Hamidov A., Nabiyeu M., Odilov T. O'zbekiston o'simliklar aniqlagichi. 1987.
4. «O'zbekiston o'simliklari» K.K. Haydarov, K.X. Xojimatov. Toshkent 1992 yil.
5. «Farmakognosiya» X.X. Xolmatov, U.A. Axmedov. Toshkent 1995 yil.
6. «Dorivor o'simliklar haqida afsonalar, rivoyatlar va xikoyatlar» Raxmonqulov U., Soliyeva S.K., Kubakova K.K. Jizzax 2004 yil.
7. X.X. Xolmatov, A.I. Qosimov. Dorivor o'simliklar lug'ati. Toshkent 1992-yil.
8. M. Nabiyeu, V. Shalnev, A. Ibrohimov. Shifobaxsh ne'matlar. Toshkent 1989-yil.-